

Sharifova Mahtob Murodjonovna

Buxoro Davlat Instituti

“Pedagogika va ijtimoiy fanlar” fakulteti

“Pedagogika” yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Umarova Sitora Muxlisovna

Annotatsiya: Insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyatning eng muhim tayanchi bu avlodlar orasidagi bog’liqlik, davomiylik va o’zaro tushunishdir. Har bir avlod o’z davrining ruhidan, ijtimoiy sharoitidan, texnologik imkoniyatlaridan va tarbiya muhitidan ta’sirlanadi. Shu sababli uch avlod - bobolar, ota-onalar va yoshlar-o’ziga xos uch xil dunyoqarash hamda uch xil olamni ifodalaydi. Bu uch avlodning bir-biridan ajratib turuvchi xislatlari hozirda qanday ahamiyatga ega ekanligini va bu nazariyani o’rganish bizga qanday qulayliklar yaratishini maqolada ko’rib chiqamiz.

Kalit so’zlar: X avlod, Y avlod, Z avlod, muammo, ota-ona, diqqat-e’tibor, an’ana, kelajak, axborot, tajriba.

Аннотация: На протяжении всего человеческого развития наиболее важной опорой общества является связь, преемственность и взаимопонимание между поколениями. Каждое поколение находится под влиянием духа своего времени, социальных условий, технологических возможностей и атмосферы воспитания. По этой причине три поколения - бабушки и дедушки, родители и молодежь - представляют три разных мировоззрения, а также три разных мира. отация: на протяжении всего человеческого развития наиболее важной опорой общества является связь преемственность и взаимопонимание между поколениями. Каждое поколение находится под влиянием духа своего времени, социальных условий, технологических возможностей и атмосферы воспитания. По этой причине три поколения - бабушки и дедушки, родители и молодежь - представляют три разных мировоззрения, а также три разных мира. В статье мы увидим, какое значение в настоящее время имеют отличительные черты этих трех поколений и какие удобства дает нам изучение этой теории.

Ключевые слова: поколение X, поколение Y, поколение Z, проблема, воспитание детей, внимание, традиции, будущее, информация, опыт.

Abstract: Throughout human development, the most important pillar of society is communication, continuity and mutual understanding between generations. Each generation is influenced by the spirit of its time, social conditions, technological capabilities and the atmosphere of education. For this reason, the three generations - grandparents, parents, and youth - represent three different worldviews, as well as three different worlds. Communication: Throughout human development, the most important pillar of society is the bond of continuity and mutual understanding between generations. Each generation is influenced by the spirit of its time, social conditions, technological capabilities and the atmosphere of education. For this reason, the three generations - grandparents, parents, and youth - represent three different worldviews, as well as three different worlds. In the article, we will see what significance the distinctive features of these three generations currently have and what advantages the study of this theory gives us.

Keywords: generation X, generation Y, generation Z, problem, parenting, attention, traditions, future, information, experience.

Dunyo shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda hayotimizga turli xil nazariyalarni kirib kelishi ham oddiy holga aylanib qoldi. Bulardan biri avlodlar haqidagi nazariyadir. Xuddi shu tushuncha ilk bor amerikalik tadqiqotchilar Nil Hou va Uilyam Straus tomonidan 1991-yilda turli yoshdagi kishilarning umumiy falsafasiga asoslangan konsepsiyani ishlab chiqib, “Avlodlar” nomli kitob chop ettiriladi. Kitobda 1584-yildan boshlab AQSH hududida yashab o‘tgan har bir avlodning tarixi batafsil tahlil qilingan. 1997-yilda ular “4-burulish” nomli asarni yozib, “avlodlar har 20-25 yilda xususiyatini yangilaydi” degan g‘oyani ilgari surgan. Olimlar avlodlarni bu 3 turga bo‘lib o‘rganishgan:

“X” – avlodlar (1965 – 1980), “Y” – avlodlar (1981 – 1994), “Z” – avlodlar (1995 – 2005)¹.

“X” avlodning ko‘pchiligi sokin avlod hisoblanadi. “X” avlodning hayoti oson bo‘lmagan. Ular iqtisodiy inqirozlar, sovuq urushning yakuni va global ishsizlik muammolariga duch kelishadi.² Bu avlod vakillari ko‘pincha oila va ish o‘rtasida

¹ Straus. William Millennials Rising : The Next Great Generation cartoons by R.J Matson. New York:Vintage original 2000-year 54-page

²https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Fayl:Generation_timeline.svg&lang=simple

muvozanat saqlashga majbur bo‘ladi. Ular dunyoda “o‘tirgan joying yoqmasa o‘zgartir, daraxt emassan” – tushunchasi asosida yashashadi va bu orqali muammolarini oson yechishga intilishadi. Ular texnologik inqilobning boshlang‘ich bosqichlarida voyaga yetishdi. Ularning bolalik yillari televizor, magnitofon va ilk videoo‘yinlari paydo bo‘lgan davrga to‘g‘ri keldi. Bu avlod raqamli texnologiyaga moslashishni o‘rganib, uni hayotning bir qismiga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi. Shuningdek, ular internetning dastlabki davrlarini boshdan kechirgan ilk foydalanuvchilar hisoblanadi.

“Y” avlod texnologiyalar bilan bog‘liqdir. Ular mobil telefonlar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali muloqot qilishni afzal ko‘radilar.³ Masofaviy ta‘lim va raqamli ishlash bu avlod hayotining ajralmas qismiga aylandi. Shu bilan birga, ular axborotning ko‘pligi va doimiy ravishda onlayn bo‘lish zarurati tufayli stressga duch kelishlari mumkin. Bu avlod o‘zining mustaqil fikri bo‘lgani bois, ular an‘analarni o‘z qarashlariga moslab hayotlariga tadbiq etishadi. Masalan, erta turmush qurish yoki uzoq muddatli ishlash kabi odatlarni o‘zlashtirishga moyil. Ular ta‘lim sohasiga ham alohida e‘tibor qaratishadi. An‘anaviy ta‘lim tizimlari ularga zerikarli bo‘lib tuyulishi mumkin, chunki, ular qiziqarli va interaktiv yondashuvlarni afzal ko‘radilar.

Masalan, videodarslar, virtual laboratoriyalar yoki geymifikatsiya orqali bilim olish ularning e‘tiborini ko‘proq jalb qiladi.

“Z” avlodni dunyoga telefon yoki planshet bilan kelgan deyish mumkin. Bola yoshligidan gapirishni yoki o‘qishni bilmasligi mumkin, ammo smartfondagi videoni boshqasiga qanday o‘tkazishni yoki rasmga olishni biladi. Buning yomon tomoni shundaki, bola o‘zligini anglamay turib turli xil videolarni tomosha qilishi uni psixikasiga juda katta salbiy ta‘sir qiladi. Insonlar bilan muloqotga kirishmay katta bo‘layotgan bolalarda tajriba kamligi, gapirishni yoqtirmaslik, begonalardan o‘zini olib qochish va juda ko‘plab psixik muammolarni keltirib chiqarayotganini kuzatish mumkin. Ular kunlik hayotida 1 daqiqaga bormagan o‘nlab qisqa videolarni ko‘rishi afsuski, ularning odatiga aylanib qoldi. Shuncha ma‘lumotni qabul qilishligi va qisqa muddatda dunyoda nima bo‘layotganidan xabardor bo‘lishligi aslida ularga juda ma‘qul kelmoqda. Ammo “Yaxshiga yomon doimo yondosh yurganidek” har bir video o‘z mohiyatiga ega ya‘ni, biri kulgili, biri yig‘latadigan bo‘lishi mumkin. Qisqa muddatda ongda minglab his-tuyg‘ularni boshdan kechirish insonni bora-bora befarqlikka olib keladi va natijada o‘z emotsiyasini boshqara olmaydi, turli xil psixologik kasalliklarga uchraydi.

³ [X, Y, Z avlodlari: ularni qanday tushunish kerak? Xyz avlod nazariyasi nima va bu odamlar kimlar? Xy z avlodining asosiy xususiyatlari](#)

Dr. Gloria Markning tadqiqotiga ko'ra, ekranga bo'lgan diqqat-e'tiborimiz oxirgi 2004-yilda 2,5 daqiqa bo'lgan bo'lsa, 2012-yilga kelib 75 soniyaga tushib ketgan. Oxirgi 4 yillikda esa bu 47 soniyani tashkil qiladi. Ya'ni bora-bora diqqat-e'tiborimiz kamayib bormoqda. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda bu avlod yaxshi xulq-atvor egasi sanalsa-da, atrofdagi voqealarga beparvoligi hamda xatarga nisbatan yondashuvi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu nazariyani o'rganish orqali bozor iqtisodiyotini shakllantirishda, marketologlar faoliyatini yaxshilashda, ayniqsa, satsiologlarning ijtimoiy qatlamlarni o'rganishdagi tadqiqotlarini jonlantirishda, axborot uzatuvchilar, ya'ni OAV vakillarini o'z auditoriyalarini yaqinroq o'rganishhamda ularga kerakli, qiziqarli bo'lgan axborotni tayyorlab uzatishda katta foyda beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Straus. William Millenials Rising : The Next Great Generation cartoons by R.J Matson. New York:Vintage original 2000-year 54-page
2. https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Fayl:Generation_timeline.svg&lang=uz-simple
3. ¹ [X, Y, Z avlodlari: ularni qanday tushunish kerak? Xyz avlod nazariyasi nima va bu odamlar kimlar? Xy z avlodining asosiy xususiyatlari.](#)